

VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2023- yilning yanvar-dekabrida chakana tovar aylanmasi 21 549,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	21 549,4	107,7	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	7 069,5	106,8	32,8
undan fuqarolarning xususiy mulki	14 479,9	108,2	67,2

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-dekabrida 21 549,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 12 078,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,0 foizga o'sdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	21 549,4	107,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	7 069,5	106,8	32,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	12 078,5	109,0	56,1
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 401,4	103,9	11,1

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi



Tuzlamalar



Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi)



Sut va sut mahsulotlari



Tuxum



Non va non mahsulotlari



Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)

Don mahsulotlari (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar) mahsulotlari



Zirotlar



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar




Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1121,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (623,8 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.


**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 279,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 876,7 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 342,2 mlrd. so'mni, otlar 53,7 mlrd. so'mni, parrandalar 7,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:




Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 256,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 828,6 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 84,1 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 6 428,2 mlrd. so'mni tashkil etib 110,9 % ga o'sdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 607,5 mlrd. so'mni tashkil etib 2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foiz bo'lib, 6 119,4 ming so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 21 549,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 936,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,6 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 133,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 12 078,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 401,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,9 %) tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd. so‘m)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo‘lgan Qarshi shahar va (Viloyat bo‘yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 25,4 %), Shahrisabz shahar (8,3 %), Chiroqchi (8,2 %), Koson (8,1 %) va Qamashi tumanlari (7,2 %) chakana savdo tovar aylanmasining o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 936,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,3 % ulushiga toʻgʻri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 18 211,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,5 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (jamiga nisbatan foiz hisobida)

2022- yil
yanvar-dekabr



2023- yil
yanvar-dekabr



 Yirik korxonalar
 Kichik korxonalar

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	936,5	105,6	20 612,9	107,8
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	464,2	90,7	5 011,7	109,0
Shahrisabz	25,6	82,3	1 762,7	107,9
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	25,3	2,5 m.	846,0	106,0
Dehqonobod	6,3	88,8	694,7	105,9
Qamashi	14,2	92,7	1 540,8	107,2
Qarshi	13,6	59,7	816,6	108,5
Koson	95,7	165,0	1 661,7	106,7
Kitob	15,8	31,8	1 101,9	111,3
Mirishkor	5,6	87,1	762,4	107,3
Muborak	49,5	102,2	542,7	110,5
Nishon	6,6	78,2	824,3	106,6
Kasbi	36,7	4,0 m.	865,5	106,7
Ko‘kdala	32,1	-	650,8	103,1
Chiroqchi	44,3	78,0	1 722,4	109,3
Shahrisabz	89,4	2,4 m.	653,8	106,4
Yakkabog‘	11,6	81,0	1 154,9	106,1

2023- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha Kitob (111,3 %) Muborak (110,5 %), Chiroqchi (109,3 %) Qarshi shahri (109,0 %), va Qarshi tumanlarida (108,5 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,3 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Shahrisabz (12,0 %) Qarshi shahrida (8,5 %), va Muborak (8,4 %) tumanlarida kuzatildi.